

"YOUTH OF UZBEKISTAN AGAINST DESTRUCTIVE IDEAS"

Mamarailov Ibrohim Muhiddinovich

International Islamic Academy of Uzbekistan

Abstract: This article is about the fact that the youth of Uzbekistan are against destructive ideas, be a tool for it and understand the love for the motherland.

It is about uniting with people of different nationalities and religions in its millennial history. It was noted that the fact that people in Uzbekistan have never had a problem because of their religious beliefs is a vivid illustration of the close ties between Islamic and Christian and Jewish religious communities between nations and religions.

Keywords: Homeland, youth, idea, article, magazine, history.

"O'ZBEKISTON YOSHLARI BUZG'UNCHI G'OYALARGA QARSHI"

Mamarailov Ibrohim Muhiddinovich

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi

Annotatsiya: Ushbu maqola O'zbekiston yoshlarning buzg'unchi g'oyalarga qarshi ekanligi, unga vosita bo'l va vatanga bo'lgan muhabbatni anglashidan iboratdir.

Ming yillik tarixida turli millat va din vakillari bilan birlashishi haqidadir. Ta'kidlanishicha, O'zbekiston diyorida odamlar o'zlarining diniy e'tiqodlari tufayli hech qachon muammo bo'lmaganligi xalqlar va dinlar o'rtasidagi islom, xristian va yahudiy diniy jamoalarining yaqin aloqalari buning yorqin ifodasidir.

Kalit so'z: Vatan, yoshlar, g'oya, maqola, jurnal, tarix.

"Inson bir g'oyadir, vosita emas"

E.Kant

Qadim zamonlardan beri dunyoning turli burchaklarida turli din, til, madaniyat, turmush tarzi va urf-odatlariga ega bo'lgan odamlar bu yurtda birlashdilar. O'zbekistonning jug'rofiy ahamiyatga ega bo'lgan savdo yo'llari va dunyoning ko'plab mamlakatlari bilan madaniy aloqalari mavjudligi xalqlarning diniy va madaniy hayotiga chuqur ta'sir ko'rsatdi va uning o'ziga xos turmush tarzini belgilaydigan omillardan biri bo'ldi.

O'zbeklar tarixda turli millat va dinlarning vakillari har doim hamjihatlikda, hamkorlikda yashab, turli millat va dinlarga mansub odamlarning tinchlik va do'stlikda hayot kechirayotganining guvohi bo'lganlar. O'zbekistonda hech qachon diniy e'tiqodi tufayli odamlar o'rtasida hech qanday muammo va nizolar bo'lmagan. Islom, xristian va yahudiy diniy jamoalari o'rtasida millatlar va dinlar o'rtasida yaqin munosabatlar mavjud bo'lib kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti Islom Karimov bunday munosabatlarga baho berar ekan, shunday degan edi: "O'zbekiston hududida musulmonlar va nasroniylarning birgalikdagi hayoti diniy va ma'naviy birlikning noyob namunasi, noyob ramz va boshqa din vakillari uchun bag'rikenglikning yuksak namunasidir".

Bunday muhim yutuqqa erishish O'zbekistonning inson huquqlari va insoniy qadriyatlarga asoslangan milliy siyosatining tabiiy natijasidir. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, mamlakat ma'muriyati etnik-madaniy qadriyatlar va urf-odatlar, mamlakat xalqlarining urf-odatlari va urf-odatlari, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy muammolarni hal qilish bilan bog'liq masalalarga ahamiyat berishni boshladi. Bunday siyosatning huquqiy asoslari O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida va ushbu asosiy qonun asosida chiqarilgan respublika qonunlarida belgilanadi.

Bunda O'zbekiston Respublikasining milliy siyosati¹

U quyidagi printsiplarga asoslanadi:

1. Fuqarolarning turi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi va e'tiqodi, ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonunlar oldida teng huquq va erkinliklarini ta'minlash;
 2. Siyosiy masalalar, mafkuralar va farqlar bo'yicha ijtimoiy farqlar hayotning rivojlanishi;
 3. Turli millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va urf-odatlari hurmat qilish
- Ishlab chiqish va namoyish qilish uchun zarurshart-sharoitlarni ta'minlash.

Bugungi kunda yurtimizda 130 dan ortiq millat va elatlar o'zaro inoq, totuvlikda yashab kelmoqda. Respublika ko'p konfessiyali mamlakatdir, hozirda O'zbekistonda 16 ta konfessiyaga mansub 2 ming 244 ta diniy tashkilotlar rasman faoliyat ko'rsatmoqda. O'z navbatida, mazkur konfessiyalarning o'z faoliyatini amalga oshirish va mamlakat hayotida faol ishtirok etishi uchun hamma imkoniyatlar mavjud. Davlat ta'lim muassasalarida o'qitish 7 tilda olib borilmoqda. O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi o'z ko'rsatuvlarini 12 tilda namoyish etmoqda, 10 dan ortiq tilda gazeta va jurnallar nashr etilmoqda. Mamlakatimizda etnik o'ziga xoslikni rivojlantirishda 137 ta milliy madaniy markaz, 34 ta do'stlik jamiyatlari muvaffaqiyatli faoliyat yuritib kelayotganligi fikrimizning tasdig'idir. O'zbekistonda vijdon erkinligi, har kimning xohlagan diniga e'tiqod qilishi yoki qilmaslik huquqi to'liq ta'minlangan va qonuniy kafolatlangan. Mazkur holat, ko'p millatli, ko'p konfessiyali bo'lgan mamlakatda o'ziga xos yondashuv bo'lib, shu ma'noda ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda O'zbekiston o'ziga xos boy tajriba ortirganligini ta'kidlash o'rinlidir.

Bunga qaramay, so'ngi o'n yil ichida yoshlarning buzg'unchi g'oyalarga ergashib ketishligi yoshlarda vatanparvarlik tuyg'ularini anglamasligidandir.

Shuni yahshi bilishimiz lozimki, Vatan so'z bilan, shior bilan sevilmaydi balki qalb bilan seviladi. Vatanni eng ko'p sevgan, Vatan oldidagi burchini to'liq ado etgan insondir.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev "Bizni hamisha o'ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so'z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog'liq. Bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin. Lekin ayni paytda o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodimiz, degan da'vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o'zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan." deb aytib o'tganidek, o'tmishimizni unutmasligimiz, yoshlarda

¹ <http://lex.uz>

vatanparvarlik tuyg'ularini shakllanishini, jonajon O'zbekistonimizni sevishni bilim va yutuqlarimiz bilan ko'rsatib berishimiz kerak.

Bugungi kunda yurtimizda vatan va bayroq haqida fikr so'ralganda O'zbekistonni sevishni yoki u haqida vatanparvar so'zlarni aytishligini bilamiz ammo bu yetarli emas. Demak, vatan sevgisi boshqa bir narsa, o'zgacha bir tuyg'u. Vatanni boshqacha sevmok kerak. Vatanga muhabbat, uni qadrlash, uning hizmatiga har doim shay turish, qarorli va jasur bo'lish, tarixga hurmat, kelajakka ishonch bilan qarash lozimdir. O'tmish va kelajak orasidagi narsani tushunish, mas'uliyatni his etish, har taraflama himoya qilish va uni boshimizga ko'tarishdir.

“Vatanning qiymati – sen u yerda boshqa joylardagiga nisbatan adolat ko'proqligini ko'rishingdir. Vatanning qiymati – sen u yerda boshqa joylardagiga nisbatan muhabbat ko'proqligini ko'rishingdir. Agar Vatan himoya, adolat va muhabbatdan xoli bo'lsa, fuqarolar musofirga aylanib qoladi.”² (Mustafo Amiyn)

Vatanni sevish, oshiq bo'lish kabi har qanday boshqa sevgidan farqlidir. Vatan uzoqdan sevilmas. Vatan taomni yahshi ko'rish, ranglarni yoqtirish, kiyimlarni tanlash kabi sevilmas. Vatan bundoq ham vatandir, undoq ham vatan deya sevilmas. Vatan ko'r ko'rona sevilmas. Vatan ruh, aql, yurak, butun vujud, tirnoqdan soch tolasiga qadar butun borliq bilan seviladi. Insonni inson qilgan barcha yahshi amallar bilan seviladi.

“Vatanni sevish – vatanparvarlik haqida kuylashing emas. Vatanni sevish – vatanparvarlik haqida lof urishing ham emas. Vatanni sevish mashinang oynasidan tashqariga axlat uloqtirmasliging xolos.”³ (Mubashshir Ahmad) Vatan - bu bitta, ajralmas, vos kechilmas, hech narsa bilan taqqoslab ko'rilmay, hech narsa uning o'rniga qo'yilmay. Mulkdan, matohdan, puldan, jondan, jonondan barcha narsadan kechilir Vatandan kechilmas. Chunki sizning hayotingiz, yaqinlaringiz, millatingiz, otabobolaringiz, tarixingiz, o'tmishingiz, kelajagingiz, nomusingiz, sharafigiz, farovonligingiz, baxtingiz, tinchligingiz, orzularingiz, hayotingiz, xalqingiz va millatingiz barchasi vatandadir. Vatan sevgisi sevgi so'zining chegaralarini shunchali zichlashtiradiki, agar siz bu muhabbatni ruh, qat'iyat, ishonch, fidoyilik va harakatlar bilan boqmasangiz, unda sizning muhabbatingiz Vatanga yordam bermaydi, aksariyat muhabbat singari, bu sevgi sizning ehtirosingizni qondirish uchun yetarli bo'lib qolaveradi.

“Vatanga muhabbat mavhum tushuncha bo'lmay, tashkilotchilikni, taraqqiyot va madaniyatni talab qiladigan real ruhiy qudratdir.”⁴ (Aleksey Nikolayevich Tolstoy)

Vatanni sevish - bu ma'lum kunlarda, yodgorlik tadbirlarida, marosimlarida yoki shunchaki hissiyotlarni boshdan kechiradigan hayajon emas. Vatanga bo'lgan muhabbat unga xizmat qilish bilan o'lchanadi va u, bu masalaning o'lchovini belgilab beradi. O'ylaymanki, barchamiz o'z samimiyligimizni baholab, ushbu o'lchovga binoan e'tiborga olishimiz kerak.

Ko'pchilikning yaxshi niyatiga shubha yo'q, ammo hozirgi sharoitda natija o'zgartira olinmasa, faqat yaxshi niyat yetarli bo'lolmaydi.

Vatanni sevish o'g'liga bo'lgan muhabbat kabi bo'lishi kerak. Ota-ona o'z bolasi qanday bo'lishidan qat'iy nazar, yahshi ish qilsa ham, yomon ish qilsa ham farzandiga bo'lgan muhabbati zarra bo'lsa ham o'zgarmagani kabi Vatanni ardoqlamoq kerak. Farzandni kelajakda baxtga ega bo'lishni o'ylab, uni ta'minlashga harakat qilsa, izlanishlar olib borsa, yo'qotishlar qilsa, o'zi yemay yedirsa, o'z

² mana.uz

³ mana.uz

⁴ mana.uz

kiyimini kiydirsa, vatanga bo'lgan haqiqiy muhabbat ham shunday bo'lishi kerak. U haqiqatan ham o'z mamlakatini, xalqini sevadigan bo'lsa, samimiyligi bilan kuniga 24 soat, hatto uxlab yotganda ham vatani haqida o'ylaydi, har bir xatti-harakati bilan harakat qiladi. Uning xatti-harakatlari, tanlov va qarorlari uning mamlakatiga zarar keltirmasligiga, shuningdek, mamlakatning yuksalishiga e'tibor beradi.

1966-yilda Toshkentda falokatli zilzila bo'ldi.⁵ Toshkent zilzilasi oqibatida shahar aholisining yarimi uysiz qoldi. Bir necha soniya ichida ikki mln kv turar joy maydoni yaroqsiz holga keldi. 78 ming nafar oila uy-joysiz qoldi, zilzila natijasida ma'muriybinolar, savdo ob'ektlari, kommunal xizmatlar, o'quv muassasalari, tibbiyot va sanoatbinolari vayron bo'ldi.

Toshkent zilzilasi shahar aholisidan katta matonatni talab qilar edi. Xalq darxol yechim topishga kirishdi. Qulagan binolarga yugurib, uning ostidagi insonlarni chiqarishga, ko'tarolgancha yuk ko'tarishga, yurtini qayta obod qilishga kirishdi. Bir kecha kunduz davomida yo'laklar va o'tlar ustida palatkalar qurilib, ularga odamlar ko'chirildi. Odamlar bir-birlariga qo'ldan kelgancha yordam berib, bir-birlarini qo'llab quvvatlab turdilar. Shaharda biror birtalon-tarojlik voqeasi sodir bo'lmadi.

Biz buni haqiqiy vatanga bo'lgan muhabbat deymiz. Baralla Vatanparvarlikning yorqin namoyandasi deya olamiz.

Iroda va jasoratimizni namoyon etgan holda, o'z hayotimizni Vatanimizning har tomonlama ravnaq topishi, bugungi tinch , faravon va osoyishta kunlar uchun jonini fido qilgan ota bobolarimizni muqaddas xotirasini yod etib, ezgu ishlarni davom ettirishimiz, fidoyi bo'lishimiz, tinch va omon turmush tarzimizga shukr qilishimiz, shiningdek, biz ham o'z hissamizni qo'shishimiz darkor. Shundagina bizni hech kim yengolmaydi va hech kimdan kam bo'lmaymiz

Foydalanilgan Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.-T.: O'zbekiston, 2015.
2. Inson huquqlari: Universal xalqaro hujjatlar to'plami. -T.: 1996 yil.
3. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-jild. – T.: O'zbekiston, 1996. 364- b.
4. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. 2-jild. – T.: O'zbekiston, 1996. 380- b.
5. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. 9-jild.- T.: O'zbekiston, 2001. 432-b.
6. Abilov O'. O'zbekiston taraqqiyotining antimistik ruhi:ma'naviy-mafkuraviy, g'oyaviy jihatlar.-T.: Istiqlol nashriyoti, 2003.-207 b.

Internet saytlari

1. www.Ziyo.uz
2. mana.uz
3. www.gov.uz

⁵ O'zbekiston poytaxti,Toshkent, 26 aprel 1966 yil. Erta tong 05:23 da odamlar hali o'z uylarida uxlayotganlarida kuchli yer silkinishi ro'y berdi.